



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-sentyabr


RAQAMLAR:

- Xizmatlar sohasida 11,4 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda.
- 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 4609,1 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 2450,9 ming.so'mni tashkil etdi.

Zamonaviy jamiyat hayotida xizmatlar sohasi juda keng tarqalgan hodisa hisoblanadi. Bugungi kunda u yoki bu turdag'i xizmatlar ko'rsatmaydigan yoki hech bo'limganda unga duch kelmagan korxonalar deyarli qolmagan.


Hozirgi vaqtida viloyat hududida 17,6 mingdan ortiq korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Shundan, xizmatlar sohasida 11,4 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning jami korxona va tashkilotlar sonidagi ulushi 65,0 % ni tashkil etdi.

**2018 yil 1 oktyabr holatiga korxona va tashkilotlarning umumiyl sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2018 yil 1 oktyabr holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar (32,4 %) yuqori ulushni egallaydi.

2018 yil 1 oktyabr holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %



Yaqin va uzoq xorij davlatlari bilan o'zaro hamkorlikni kengaytirish, turizm sohasini jadal rivojlantirish yashash va ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilot sonining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Ularning ulushi 9,6 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxona va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 9,8 % ni tashkil etdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalarning ulushi 1,8 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 4,2 % ni tashkil etdi.


2018 yil yanvar-sentyabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 4609,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,9 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	4609,1	107,9
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	271,8	117,2
Moliyaviy xizmatlar	446,4	120,1
Transport xizmatlari	1206,2	103,8
shu jumladan: avtovoz xizmatlari	1129,9	102,5
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	201,9	104,6
Savdo xizmatlari	1564,7	104,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	130,5	106,0
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	199,9	147,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	85,8	101,0
Ijara xizmatlari	126,9	105,0
Kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	110,6	105,8
Shaxsiy xizmatlar	100,4	101,2
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	43,4	117,5
Boshqa xizmatlar	120,6	108,9

O'tgan yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlari hajmi (388,0 mlrd.so'm), transport xizmatlari hajmi (555,1 mlrd. so'm), moliyaviy xizmatlar (116,4 mlrd. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (46,0 mlrdn.so'm), ta'lif xizmatlari (62,8 mlrd.so'm) oshganligi kuzatildi.


2018 yil yanvar-sentyabr oylarida alohida xizmat turlari hajmining taqqoslanishi



Xizmatlar hajmining nisbatan sezilarli bo'limgagan holda oshishi me'morhilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar bo'yicha kuzatildi. Ularning hajmi 2017 yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 12,5 mlrd.so'mga oshdi.

Eng yuqori o'sish sur'atlari ta'lif sohasidagi xizmatlar (147,4 %), moliyaviy xizmatlar (120,1 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (117,5 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (117,2 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari sog'liqni saqlash bo'yicha xizmatlar (101,0 %), shaxsiy xizmatlar (101,2 %), transport xizmatlar (103,8 %) kabi xizmat turlarida kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida savdo xizmatlari sezilarli ulushni egallaydi. 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida uning ulushi 33,9 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari (26,2 %), moliyaviy xizmatlar (9,7 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,9 %) egallaydi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %




Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (0,9 %) hamda ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar bo'yicha nisbatan yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan bo'lsada, lekin ularning ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi arzimas (2,8 %) ni tashkil etadi.

Bugungi kunda savdo-sotiq iste'mol bozoriga bo'lgan talabni shakllantirish jarayonining faol ishtirokchisiga aylandi. Savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil qiladi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 1564,7 mlrd.so'mga teng bo'lди. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 33,9 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %




Savdo xizmatlari tarkibiga avtomobillar va mototsikllardan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 79,5 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 14,5 % ni tashkil etdi.

Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosini, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda umumiy savdo xizmatlarining 6,0 % ni tashkil qiladi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 199,9 mlrd.so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 47,4 % ni tashkil etdi. Ushbu xizmatlarning o'sishi oliy o'quv yurtlarida shartnoma asosida, shu jumladan oshirilgan stavkali shartnoma asosida ta'lim olayotgan abiturientlar sonining o'sishi bilan izohlanadi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha ta'lim sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'ati, %



Shahar va tumanlar orasida eng yuqori ko'rsatkich Buxoro (159,6 %) va Kogon (139,6 %) shaharlari, G'ijduvon (128,8 %), Jondor (124,6 %) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa tumanlarga nisbatan yuqori bo'limgan o'sish sur'atlari Shofirkon (101,9 %) va Olot (110,8 %) tumanlarida kuzatilmoqda.


**2018 yil yanvar-sentyabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Buxoro viloyati	4609,1	107,9
shaharlar:		
Buxoro	2665,1	108,9
Kogon	166,9	100,2
tumanlar:		
Olot	118,0	105,1
Buxoro	172,5	106,3
Vobkent	155,5	105,7
G'ijduvon	494,8	107,7
Kogon	86,8	104,9
Qorako'l	140,3	105,7
Qorovulbozor	93,9	124,0
Peshko'	113,5	108,6
Romitan	155,3	105,8
Jondor	127,9	106,4
Shofirkon	118,6	105,6

Shahar va tumanlar o'rtaida Buxoro shahri (2665,1 mlrd.so'm) etakchilik qilmoqda. O'tgan yilning mos davriga nisbatan, ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Buxoro shahri bo'yicha 108,9 % ni tashkil etdi.

Buxoro shahrida yuqori o'sish sur'atining ta'minlanishi birinchi navbatda aholi real daromadlarining oshishi, yakuniy iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishi bilan bog'liqdir. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida Buxoro shahrining ulushi 57,8 % ni tashkil etadi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati va ulushi, %




Yuqori o'sish sur'atlari Qorovulbozor tumanida (124,0 %) va Buxoro (108,9 %) shaharlarda kuzatildi. Yuqori bo'limgan o'sish sur'atlari Kogon shahri (100,2 %), Kogon (104,9 %), Olot (105,1 %) tumanlarida kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida eng kichik ulush Kogon tumanida (1,9 %) qayd etildi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2450,9 ming.so'mga teng bo'lди. 2017 yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 364,0 ming.so'mga oshdi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Buxoro shahrida - 9628,3 ming so'm qayd etildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining yuqori o'sish sur'ati Qorovulbozor tumanida - 121,9 % kuzatildi.